

Termiz shahrining bosh rejasiga binoan 2021 yilda buzilishi rejalashtirilgan bino va inshootlar to'g'risida Termiz shahar hokimligining rasmiy bayonoti

Termiz shahrining bosh rejasiga binoan 2021 yilda buzilishi rejalashtirilgan bino va inshootlar to'g'risida Termiz shahar hokimligining rasmiy bayonoti

Termiz shahri hududlarini kompleks rivojlantirish, shu jumladan, muayyan hududning arxitektura qiyofasini o'zgartirish va yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari hamda investitsiya va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha shaharning bosh rejasiga binoan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 noyabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 911-sonli qaroriga asosan Termiz shahrida buzilishi rejalashtirilayotgan binolar to'g'risida ma'lumot.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 iyuldagi "2035 yil davrigacha Termiz shahrining bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 195-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 noyabrdagi 911-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizomiga asosan asosan Termiz shahar "Shodlik" mahallasi, Taraqqiyot va Barkamol Avlod ko'chalari kesishuvidagi 2 qavatli, 3-sonli turar-joy binosida yashovchi fuqarolarga tegishli bo'lgan xonadonlarning kompensatsiya mablag'larini oldindan 100% (foiz) to'lab berish yoki uy-joy bilan ta'minlash sharti bilan buzib, o'rnidan ko'p qavatli turar-joy va mehmonxona

binosini qurish uchun “Afghan-German Company” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan to’liq to’lab berilishi yoki uy-joy bilan ta’minlashi belgilangan.